

**YANGI O'ZBEKISTONDA XALQARO HUQUQ VA INSON
HUQUQLARI MASALASI**

G.V.Plexanov nomidagi Rossiya Iqtisodiyot Universitetining Toshkentdagi filiali,Xalqaro iqtisodiyot va biznes kafedrasi mudiri,PhD,siyosiy fanlar nomzodi

Sabitov Shukur Abdurahmonovich

shukursabitov89@gmail.com

+998777777946

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy

kommunikatsiyalar universiteti

Xalqaro munosabatlar yo'nalishi

Shodmonov Allamurod Farxod o'g'li

allamurodshodmonov777@gmail.com

+998944617787

Annotatsiya: 2017-yildan boshlab O'zbekistonda inson huquqlari sohasida keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlarning asosiy yo'nalishlariga majburiy mehnatni bartaraf etish, mahbuslarning ahvolini yaxshilash, ijtimoiy adolatni ta'minlash va fuqarolarning huquqlarini himoya qilish kiradi. Mamlakatda majburiy mehnatni bartaraf etish bo'yicha qonunlar qabul qilindi, mahbuslarning soni kamaytirildi va ularning huquqlarini mustahkamlash bo'yicha choralar ko'rildi.O'zbekiston BMTning inson huquqlari bo'yicha mexanizmlari bilan faol hamkorlikni boshladi va 2018-yilda BMTning Inson huquqlari Kengashiga a'zo etib saylandi. Bu mamlakatning inson huquqlari sohasidagi xalqaro maqomini oshirdi. Shuningdek, ayollar va qizlarning huquqlarini mustahkamlash, nogironlar, qariyalar va boshqa ijtimoiy guruhlarning huquqlarini himoya qilish bo'yicha qonunlar qabul qilindi. Demokratik islohotlar doirasida fuqarolarning erkinliklarini kengaytirish, matbuot va ittifoq erkinliklarini mustahkamlash, sud tizimini isloh qilish bo'yicha ishlar olib borildi. O'zbekiston xalqaro shartnomalarni rioya etish bo'yicha faol ishlar olib bordi va BMTning inson huquqlari bo'yicha asosiy konvensiyalarini ratifikatsiya

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

qildi. Mamlakatdagi millatlararo munosabatlarni yaxshilash bo'yicha ishlar kuchaytirildi. Inson huquqlari bo'yicha ma'lumotlarni oshirish va targ'ib qilish bo'yicha keng qamrovli ishlar olib borildi. Bu islohotlar O'zbekistonda inson huquqlarini mustahkamlash va demokratik jamiyatni rivojlantirish bo'yicha muhim qadamlardir. Ularning amalga oshirilishi mamlakatning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy rivojiga muhim hissa qo'shadi.

Kalit so'zlar: Inson huquqlari, islohotlar, majburiy mehnat, mahbuslar, BMT, ijtimoiy adolat, ayollar huquqlari, demokratik islohotlar, xalqaro huquq, millatlararo munosabatlar, ma'lumotlarni targ'ib qilish.

THE ISSUE OF INTERNATIONAL LAW AND HUMAN RIGHTS IN NEW UZBEKISTAN

Annotation: Since 2017, Uzbekistan has been implementing comprehensive reforms in the field of human rights. The main directions of these reforms include the elimination of forced labor, improving the conditions of prisoners, ensuring social justice, and protecting the rights of citizens. Laws were adopted to eliminate forced labor, the number of prisoners was reduced, and measures were taken to strengthen their rights. Uzbekistan began active cooperation with the UN human rights mechanisms and was elected as a member of the UN Human Rights Council in 2018, which elevated the country's international standing in the field of human rights. Additionally, laws were adopted to strengthen the rights of women and girls, as well as to protect the rights of people with disabilities, the elderly, and other social groups. Within the framework of democratic reforms, efforts were made to expand citizens' freedoms, strengthen press and association freedoms, and reform the judicial system. Uzbekistan actively worked to comply with international treaties and ratified key UN human rights conventions. Efforts to improve interethnic relations were also intensified. Comprehensive work was carried out to raise awareness and promote human rights. These reforms represent significant steps toward strengthening human rights and developing a democratic society in Uzbekistan. Their implementation contributes significantly to the country's socio-political and economic development.

Keywords: Human rights, reforms, forced labor, prisoners, UN, social justice,

women's rights, democratic reforms, international law, interethnic relations, awareness-raising.

ВОПРОСЫ МЕЖДУНАРОДНОГО ПРАВА И ПРАВ ЧЕЛОВЕКА В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация: С 2017 года в Узбекистане проводятся масштабные реформы в области прав человека. Основные направления этих реформ включают ликвидацию принудительного труда, улучшение условий содержания заключенных, обеспечение социальной справедливости и защиту прав граждан. Были приняты законы по устранению принудительного труда, сокращено количество заключенных и приняты меры по укреплению их прав. Узбекистан начал активное сотрудничество с механизмами ООН по правам человека и в 2018 году был избран членом Совета ООН по правам человека, что повысило международный статус страны в области прав человека. Кроме того, были приняты законы по укреплению прав женщин и девочек, а также по защите прав инвалидов, пожилых людей и других социальных групп. В рамках демократических реформ были предприняты усилия по расширению свобод граждан, укреплению свободы прессы и объединений, а также реформированию судебной системы. Узбекистан активно работал над соблюдением международных договоров и ратифицировал основные конвенции ООН по правам человека. Также были усилены усилия по улучшению межэтнических отношений. Проводилась масштабная работа по повышению осведомленности и продвижению прав человека. Эти реформы представляют собой важные шаги по укреплению прав человека и развитию демократического общества в Узбекистане. Их реализация вносит значительный вклад в социально-политическое и экономическое развитие страны.

Ключевые слова: Права человека, реформы, принудительный труд, заключенные, ООН, социальная справедливость, права женщин, демократические реформы, международное право, межэтнические отношения, повышение осведомленности.

KIRISH

Yangi O‘zbekistonda xalqaro huquq va inson huquqlari doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar hamda ma’muriy islohotlarning amalga oshirilishi insonning huquq va erkinliklarini himoya qilish, davlat boshqaruvini takomillashtirish, davlat organlari faoliyati samaradorligini oshirish va fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish hamda turmush sharoitini yaxshilashga qaratilgan. So‘nggi yillarda mamlakatimizda muhtaram yutboshimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to’g’risida”gi farmon mamlakatdagi barcha aholining huquq va erkinliklarini ularga to’laqonli tarzda yetkazib berishga asoslangan. Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish qonun ustuvorligini ta’minlash va qonuniylikni mustahkamlashning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda milliy huquq tizimini tubdan isloh qilish, jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirish hamda malakali yuridik kadrlarni tayyorlash borasida sezilarli ishlar amalga oshirildi. Shu bilan birga, inson huquq va erkinliklariga hurmat munosabatini shakllantirishga, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda fuqarolarning huquqiy savodxonligi darajasini oshirishga katta e’tibor qaratildi. Umummiy mazmunda aytilganida inson huquqlari doirasida amalga oshirilgan islohotlar – davlat boshqaruvi samaradorligi va sifatini oshirish maqsadida davlat apparati tuzilmasi, funksiyalari va jarayonlarini o‘zgartirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidir. Ma’muriy islohotlarning eng muhim vazifasi – davr talablariga samarali javob bera oladigan optimal tizimni yaratish, davlat organlari faoliyatining ochiqligi va mas’uliyatini oshirishdan iborat. Qayd etish joizki, keyingi yillarda O‘zbekiston Respublikasida davlat boshqaruvini takomillashtirish, demokratiya darajasini oshirish va huquqiy tizimni mustahkamlashga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. Yurtboshimiz ta’kidlaganidek: “Demokratik islohotlarimiz yangi O’zbekistonni bunyod etishga qaratilgan bo’lib, bu o’zgarishlar ortga qaytmaydigan tus oldi”.

METODOLOGIYA

O’zbekistonning xalqaro huquq va inson huquqlari masalasida olib borayotgan

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

siyosatini tahlil qilishda xalqaro munosabatlар va geosiyosatning tahliliy usullari qo'llanilgan. Tadqiqot quyidagi asosiy manbalarga tayangan: O'zbekistonning inson huquqlari va xalqaro huquq siyosatiga oid rasmiy bayonotlari va hisobotlari. Ushbu bayonotlar va hisobotlar O'zbekistonning inson huquqlarini amalga oshirishdagi diplomatiyasining shakllanishi va amalga oshirilishining asosiy vositalarini o'rganishga imkon beradi. Shuningdek, ommaviy axborot vositalarining mazmunini tahlil qilish orqali mintaqadagi inson huquqlari dinamikasi va ularning xalqaro siyosatga ta'siri aniqlangan. Xalqaro huquq va inson huquqlari bo'yicha yetakchi tahlilchilar va mutaxassislarning fikrlarini o'rganish, shuningdek, O'zbekiston va boshqa mamlakatlarning inson huquqlari siyosatiga oid ilmiy tadqiqotlar va analitik maqolalarni o'rganish, ushbu masalalarga chuqurroq yondashishga imkon yaratdi. Ma'lumotlarning asosiy manbalariga inson huquqlarini himoya qiluvchi Xalqaro agentliklar hisobotlari, ixtisoslashgan jurnallardagi maqolalar, shuningdek, O'zbekiston va xalqaro ommaviy axborot vositalarining tahliliy ma'lumotlari kiradi. Tadqiqot davomida, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan inson huquqlari siyosatining xalqaro miqqyosdagi o'zgarishlarga qanday ta'sir ko'rsatishi, shu jumladan, xalqaro huquq kontekstida qanday yangilanishlar ro'y berayotgani aniqlangan. Bundan tashqari, O'zbekistonning inson huquqlari diplomatiyasining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi, uning mintaqadagi geosiyosi va iqtisodiy pozitsiyalarini kuchaytirishga yordam berishi kutilmoqda. Bunga erishish uchun O'zbekiston o'zining resurslarini boshqarishda innovatsion strategiyalarni ishlab chiqishga, shuningdek, yanada ko'proq yangiliklar yaratishga intiladi. Tadqiqot natijalari, O'zbekiston xalqaro huquq va inson huquqlari diplomatiyasining kelgusidagi rivojlanishi va mintaqaviy hamkorlikdagi o'rni haqida muhim fikrlar berishi mumkin.

ASOSIY QISM

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan ilgari surilgan 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar strategiyasida qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish ikkinchi ustuvor yo'nalish sifatida belgilangani bejiz emas. Zero, davlat va jamiyatni tubdan modernizatsiya qilishda, eng avvalo, fuqarolarning huquq va

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

erkinliklarini ishonchli himoya qilish, sud mustaqilligini ta'minlash, odil sudlovga erishish, qonuniylikni mustahkamlash, korrupsiyaga qarshi samarali kurashish muhim ahamiyat kasb etadi. O'tgan davr mobaynida O'zbekistonda barcha sohalar qatori sud-huquq yo'nalishida ham keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Jumladan, sudlar mustaqilligini ta'minlash maqsadida, Sudyalar oliv kengashi tashkil qilindi. Shuningdek, Oliy sud va Oliy xo'jalik sudi birlashtirilib, Oliy sud faoliyati takomillashtirildi. Hududlardagi xo'jalik sudlari iqtisodiy sudlar sifatida qayta tashkil etildi, 71 ta tumanlararo, tuman (shahar) iqtisodiy sudiga ishlarni birinchi instansiyada ko'rib chiqish vakolati berildi. Sudya lavozimida faoliyat yuritishning ilk marotaba besh yillik, keyin o'n yillik muddati va muddatsiz davri belgilandi. Sudlarning o'z moliyaviy, moddiy-texnik masalalarini mustaqil hal qilish boradagi vakolatlari adliya organlaridan olinib, Oliy sudga o'tkazildi. Sud tomonidan jinoyat ishini qo'shimcha tergovga qaytarish instituti bekor qilindi. Shaxsning jinoyat sodir etishdagi aybdorligi faqat sud muhokamasida o'z isbotini topgan dalillarga asoslanishi kerakligi qat'iy belgilab qo'yildi. Qiynoqqa solish, ruhiy, jismoniy bosim o'tkazish va boshqa zo'ravonlik holatlari qat'ian taqiqlandi.

Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalardan kelib chiqib, 2019-yil 2-avgustda prezidentning siyosiy irodasi sababli "Jasliq" koloniyasi yopildi. "Jasliq" qamoqxonasining yopilishi haqidagi xabarga Human Rights Watch tashkiloti vakili Stiv Sverdlou hamda AQShning O'zbekistonidagi sobiq elchisi Pamela Spratlen o'z munosabatlarini bildirdi. Prezident O'zbekistonning shimoli-g`arbida joylashgan, tavqi lan`atga uchragan "Jasliq" qamoqxonasini yopish to`g`risida qaror qabul qildi. "Bu shubhasiz, O'zbekiston uchun yaxshi yangilik. Umid qilamanki, bu butun bir davrning haqiqatda xotima topishidir. O'zbekistonning zo'ravonlik bilan uyg'un dunyoga dong`i ketgan ayrim ishlari aynan "Jasliq" bilan bog`liqdir. Qamoqxonani yopish to`g`risidagi qarorini e`lon qilar ekan, Prezident juda katta siyosiy jasorat namoyish etdi. Endi tarixni o`rganib, u hech qachon takrorlanmasligi uchun xulosa chiqarish zarur", - deydi Human Rights Watch tashkiloti vakili. So'nggi yillarda inson huquqlarini himoya qilishning qonunchilik va tashkiliy-huquqiy bazasini mustahkamlash, inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

implementatsiya qilish va xalqaro majburiyatlarni bajarish, shuningdek, inson huquqlarini himoya qilish masalalari yuzasidan xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni faollashtirishga doir tizimli ishlar olib borilmoqda.

Hozirgi vaqtida O‘zbekiston Respublikasi inson huquqlari bo‘yicha 80 dan ortiq xalqaro hujjatlarga, jumladan Birlashgan Millatlar Tashkilotining 6 ta asosiy shartnomasi va 4 ta fakultativ protokoliga qo‘shilgan bo‘lib, ularning amalga oshirilishi yuzasidan BMTning Inson huquqlari bo‘yicha kengashi va shartnomaviy qo‘mitalariga muntazam ravishda milliy ma’ruzalarni taqdim etib kelmoqda. Bundan tashqari, milliy qonunchilikni inson huquqlari sohasidagi xalqaro-huquqiy standartlar bilan uyg‘unlashtirish bo‘yicha amaliy chora-tadbirlar ko‘rilmoxda. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 22-fevral kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Inson huquqlari bo‘yicha kengashi 46-sessiyasining yuqori darajadagi segmenti ishida ishtirok etdi. Inson huquqlari bo‘yicha kengash faoliyati butun dunyo bo‘ylab inson huquqlari himoyasini ta’minlashga qaratilgan BMT tizimidagi eng nufuzli hukumatlararo organlardan biri hisoblanadi. Yig‘ilish kun tartibidan inson huquqlariga rioya etilishi va ularni himoya qilish, shu jumladan fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni ta’minlash bilan bog‘liq eng dolzarb masalalar o‘rin oldi. Tadbirda BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish, Inson huquqlari bo‘yicha Oliy komissar Mishel Bachelet, qariyb 150 mamlakatdan davlat, hukumat rahbarlari, tashqi ishlar vazirlari va yuqori darajadagi vakillar ishtirok etdi. O‘zbekiston Prezidenti forumning birinchi kunida, uning yalpi qismida nutq so‘zladi. Davlatimiz rahbari o‘z nutqida mamlakatimizda demokratik yangilanishlarni chuqurlashtirishning ustuvor yo‘nalishlari hamda Inson huquqlari bo‘yicha kengash doirasidagi ishlarning asosiy vazifalariga batafsil to‘xtaldi. O‘zbekiston ham inson huquqlari bo‘yicha o‘z mukofotini ta’sis etdi. 2020 yildan boshlab har yili 10 dekabr – Xalqaro inson huquqlari kunida “Inson huquqlari himoyasi uchun” ko‘krak nishoni sovrindorlari tantanali ravishda taqdirlab borilmoqda. Bularning barchasi, shubhasiz, inson huquqlari sohasida uzoq muddatli strategiyaning qabul qilinishi tufayli ushbu sohada davlat siyosati samarali amalga oshirilayotganidan dalolat beradi. Bu, o‘z navbatida, jamiyatimizda inson huquqlari va erkinliklariga*

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

hurmat munosabati shakllanishiga, mamlakatimizning xalqaro maydondagi obro'si yanada mustahkamlanishiga, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy va siyosiy-huquqiy reyting hamda indekslardagi mavqeい yaxshilanishiga xizmat qilmoqda. Mamlakatimizda faol gender siyosati doirasida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy mavqeini mustahkamlash bo'yicha jadal ish olib borilmoqda. Yurtboshimiz BMT Bosh Assambleyasi 75-yubiley sessiyasida qayd etganidek, "Biz uchun gender tenglik siyosati ustuvor masalaga aylandi. Xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi o'rni tobora kuchaymoqda. Yangi Parlamentimizda ayol deputatlar soni ikki barobarga ko'paydi". Haqiqatan ham, Oliy Majlisga bo'lib o'tgan oxirgi saylovlari natijasida birinchi marotaba O'zbekiston parlamentida ayollar soni bo'yicha BMT tavsiyalari (kamida 30 foiz) to'liq bajarildi. Qonunchilik palatasiga 32 foiz, ya'ni 48 nafar ayol-deputatlar saylangani, o'z navbatida, dunyodagi 190 parlament ichida O'zbekiston parlamentining 37-o'ringa ko'tarilishini ta'minladi. Keyingi 4 yilda mamlakatimizda 2 ta muhim qonun – "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlari kasfolatlari to'g'risida"gi va "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi qonunlar qabul qilindi. 2020 yilning o'zida O'zbekistonda xotin-qizlarning hukumat va jamiyatdagi rolini oshirishga, ularning bandligini ta'minlashga, ayollar tadbirkorligini rivojlantirishga va muhtoj ayollarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan 15 ta normativ-huquqiy hujjat qabul qilingan. O'tgan yildan boshlab davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan ijtimoiy himoyaga muhtoj qizlarning bilim olish imkoniyatlari yanada kengaytirilib, oliy ta'lim muassasalariga 4 foizli davlat grantlari ajratildi. Mazkur yangi tizim asosida 2020 yilda 950 nafar ijtimoiy himoyaga muhtoj qizlar o'qishga qabul qilindi. Barcha vazirlik va idoralarda gender tenglik masalalari bo'yicha maslahat kengashlari faoliyati tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Gender tenglikni ta'minlash masalalari bo'yicha komissiyasi hamda Oliy Majlis Senatining Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi faol ishlamoqda. Yanada muhimi, Prezidentimiz parlamentga taqdim etgan Murojaatnomasida Senat Raisi rahbarligida Respublika Xotin-qizlar jamoatchilik kengashini tashkil etish vazifasini kun tartibiga qo'ydi.

"O'zbekiston - 2030" strategiyasining 25-maqсадида Gender tenglikni

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

ta'minlash siyosatini davom ettirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish orqali boshqaruv lavozimlaridagi xotin-qizlar ulushini 30 foizga oshirish. Jamiyatda xotin-qizlarga tazyiq va zo'ravonlikka nisbatan murosaasizlik muhitini yaratish, xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash. «Ayollar daftari» bilan manzilli ishslashning shaffof mexanizmini yaratish, mazkur ishlar bo'yicha jamoatchilik nazoratini o'rnatish nazarda tutilgan. Ushbu qabul qilingan qonun va qarorlar albatta mamlakatimizdagi xotin va qizlarning huquq va majburiyatlarini kafolatlab, shu bilan birgalikda ko'pgina huquqbuzarliklarni oldini olishda ham samarali xizmat qiladi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya mamlakatimizning yaqin va uzoq istiqboldagi barqaror taraqqiyoti, xalqimiz farovon hayotining mustahkam huquqiy asosi va ishonchli kafolatidir. Bosh qomusimizda ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplari joriy etilib, inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning mutlaqo yangi mexanizmlarini nazarda tutuvchi konstitutsiyaviy asoslar mustahkamlandi, huquqiy ta'sir choralari qonuniy maqsadga erishish uchun yetarli va mutanosib bo'lishi kerakligi va boshqalarda o'z aksini topdi.

So'nggi yillarda inson huquqlarini himoya qilishning qonunchilik va tashkiliy-huquqiy bazasini mustahkamlash, inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish va xalqaro majburiyatlarni bajarish, shuningdek, inson huquqlarini himoya qilish masalalari yuzasidan xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni faollashtirishga doir tizimli ishlar olib borilmoqda. Hozirgi vaqtida O'zbekiston Respublikasi inson huquqlari bo'yicha 80 dan ortiq xalqaro hujjatlarga, jumladan Birlashgan Millatlar Tashkilotining (keyingi o'rnlarda — BMT) 6 ta asosiy shartnomasi va 4 ta fakultativ protokoliga qo'shilgan bo'lib, ularning amalga oshirilishi yuzasidan BMTning Inson huquqlari bo'yicha kengashi va shartnomaviy qo'mitalariga muntazam ravishda milliy ma'ruzalarni taqdim etib kelmoqda. Bundan tashqari, milliy qonunchilikni inson huquqlari sohasidagi xalqaro-huquqiy standartlar bilan uyg'unlashtirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar ko'rilmoxda. Inson huquqlari bo'yicha milliy markaz direktori, akademik Akmal Saidov 2025—2028-yillarga mo'ljallangan BMT Inson huquqlari qo'mitasiga a'zo bo'ldi. BMTning mazkur organiga O'zbekistondan birinchi marta vakil saylandi. O'zbekiston vakili tarixda

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

birinchi marta BMT Inson huquqlari qo‘mitasiga saylandi. Inson huquqlari bo‘yicha Milliy markaz direktori, akademik Akmal Saidov 2025—2028-yillarga mo‘ljallangan qo‘mita a’zosi bo‘lishi mamlakatda amalga oshirilayotgan inson huquqlari va xalqaro huquq sohasidagi keng ko‘lamli islohotlarning yaqqol isboti hisoblanadi. O‘zbekistonning qator inson huquqlarini himoya qiluvchi tashkilotlarga a’zo bo‘lishi mamlakatning inson huquqlarini himoya qilish bo‘yicha xalqaro tuzilmalar bilan konstruktiv hamkorlik qilish orqali inson huquqlarini ta’minalash va himoya qilishga sodiqligini namoyish etish, qarorlar qabul qilish jarayonlarida faol ishtirok etish, shuningdek, bu borada ilg‘or tajriba almashish imkonini beradi.

XULOSA

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan buyon xalqaro huquq va inson huquqlari sohasida muhim islohotlarni amalga oshirib kelmoqda. Davlat, xususan, so‘nggi yillarda inson huquqlarini himoya qilish, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, huquqiy tizimni modernizatsiya qilish va xalqaro hamjamiyat bilan hamkorlikni kuchaytirish bo‘yicha ko‘plab yutuqlarga erishdi. O‘zbekiston BMTning inson huquqlari bo‘yicha asosiy konvensiyalariga qo‘shilish, shuningdek, ichki qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish yo‘lida muhim qadamlar tashladi. Sud tizimining mustaqilligi oshirildi, fuqarolarning huquqiy ongi yanada rivojlantirildi, ayollar va bolalarning huquqlarini yetarlicha kafolatlandi. Kelajakda O‘zbekiston xalqaro huquq normalariga qat’iy rioya qilish, shaffof va demokratik jamiyat qurish, shuningdek, inson huquqlarini himoya qilish bo‘yicha xalqaro hamkorlikni kengaytirish yo‘lida sa’y-harakatlarini davom ettirishiga ishonamiz. Natijada, O‘zbekiston inson huquqlari va xalqaro huquq sohasida muhim yutuqlarga erishgan bo‘lsa-da, bu yo‘lda yanada samarali islohotlar va izchil siyosatni amalga oshirish orqali muvaffaqiyatga erishish mumkin. Davlatning ushbu sohadagi sa’y-harakatlari nafaqat mamlakat ichida, balki xalqaro miqyosda ham O‘zbekistonning obro‘sini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI :

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 09.01.2019 yildagi PF-5618-soni.
<http://lex.uz//ru/docs/-4149765>.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2021-yilning 22-fevral kuni Jeneva shahrida o'z ishini boshlagan BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashi 46-sessiyasi Yuqori darajadagi segmentida so'zlagan tarixiy nutqidan.
3. <http://lex.uz//docs/-4872355> Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 22.06.2020 yildagi PF-6012-son.
4. Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyada so'zlagan tarixiy nutqidan.
5. <http://lex.uz//docs/-6600413> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son
6. <http://lex.uz//docs/4872355>)
- 7.<http://lex.uz//docs/-4872355> Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida.